

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**FOZILOVA FIRANGIZA KOMILOVNA**

**YUQORI QO‘SHIMCHA QIYMATGA EGA KIMYO SANOATI  
MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on economical sciences**

**Fozilova Firangiza Komilovna**

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega kimyo sanoati mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish..... 3

**Фозилова Фирангиза Комиловна**

Повышение экспортного потенциала продукции химической промышленности с высокой добавленной стоимостью..... 25

**Fozilova Firangiza Komilovna**

Increasing the export potential of chemical industry products with high added value..... 49

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**FOZILOVA FIRANGIZA KOMILOVNA**

**YUQORI QO‘SHIMCHA QIYMATGA EGA KIMYO SANOATI  
MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH**

**08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti**

**iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida  
B2022.2.PhD/Iqt2106 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mahmudov Nosir Mahmudovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Nazarova Fotima Xakimovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karabayeva Gulnora Sharafitdinovna**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent kimyo-texnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2024-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi № \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**K.A. Sharipov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**T.S. Qo'chqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda global raqobatning kuchayib borishi sharoitida har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanishida sanoat ishlab chiqarishining, shu jumladan kimyo sanoatining roli oshib bormoqda. Davlat va sanoat korxonalari o'rtasidagi, ayniqsa atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi munosabatlarning o'zgarishi, tabiiy resurslardan oqilona va muvozanatli foydalanish uchun maqbul sharoitlarning yaratilishi, fuqarolarning xavfsiz atrof-muhitga bo'lgan huquqini amalga oshirishda odamlarning hayot sifatini yaxshilash yo'nalishi bilan birlashtirilishining ahamiyati ortib bormoqda. Kimyo sanoati qurilish, avtomobilsozlik va qishloq xo'jaligini rivojlantirishga alohida ta'sir ko'rsatib, ko'plab sohalarni yangi xom-ashyo va mahsulotlar bilan ta'minlamoqda. Ushbu sanoat jahon bozorida eng faol rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib, yuqori ilmiy intensivlikni namoyon etadi. Mazkur tarmoqda katta miqdordagi xom ashyodan tashqari, katta miqdordagi suv, elektr energiyasi va yoqilg'i iste'mol qilinadi. Kimyo sohasida mehnat zichligi past bo'lsada, ammo malakali mutaxassislarning maxsus bilim va ko'nikmalari talab qilinadi. Kimyo korxonalarida turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun talab etilgan eng murakkab mexanizmlar va tuzilmalar mavjud bo'lib, katta miqdordagi kapital mablag'larsiz global kimyoviy segmentni rivojlantirish mumkin emas. Shunga ko'ra, dunyoda yuqori qo'shimcha qiymatga ega kimyo sanoati mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishning ahamiyati ham jadal o'sib bormoqda.

Jahonda global integratsiyaning kuchayishi sharoitida kimyo sanoatining yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish masalalariga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Kimyo sanoatining iqtisodiyotdagi o'rnini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirish, kimyo sanoatining eksport salohiyatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, yuqori qo'shimcha qiymatga ega kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini baholash, tarmoq eksport salohiyatini oshirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish, kimyo sanoati mahsulotlari eksport faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, bunday mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo'yicha prognozlash uslubini takomillashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan bo'lib hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda kimyo sanoatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratib kelinmoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining maqsadlaridan biriga muvofiq, bozor iqtisodiyotini belgilangan bosqichma-bosqich erkinlashtirish orqali "tabiiy gazni qayta ishlash darajasini 8 foizdan 20 foizgacha va kimyoviy ishlab chiqarish hajmini 2 milliard AQSH dollariga yetkazish bilan kimyo va gaz-kimyo sanoatini rivojlantirish"<sup>1</sup> ko'zda tutilgan. Mazkur vazifaning amalga oshirilishi O'zbekiston kimyo majmuasi hozirgi rivojlanish darajasining mahsulotlar tarkibi va raqobatbardoshligini iste'molchilar ehtiyojlarini, shuningdek, mamlakatni rivojlantirish istiqbollari yetarli darajada qondirishini ta'minlash, kimyo

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. – [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

majmuasidagi beqarorlik va yo‘qotishlarning oldini olish, davlatning tartibga solish faoliyatini ilmiy asoslarga qo‘yish, mamlakat kimyo kompleksining eksport salohiyatini oshirish, uning faoliyati barqarorligini oshirish yo‘nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etib, tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 27 fevraldagi PF-41-son “Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2016 yil 5 oktabrdagi PF-4848-son “Tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, xususiy mulkni jahon muhofazasini ta‘minlash va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2015 yil 4 martdagi PF-4707-son “2015-2019 yillarda ishlab chiqarishni tarkibiy o‘zgartirish, modernizatsiya va diversifikatsiyalashni ta‘minlash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 23 avgustdagi PQ-3236-son “2017-2021 yillarda kimyo sanoatini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida”, 2017 yil 29 avgustdagi PQ-3246-son “Kimyo sanoati tashkilotlarining eksport-import faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil 25 oktabrdagi PQ-3983-son “O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoatini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda soha faoliyatiga tegishli boshqa meyyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

**Tadqiqotlarning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatning ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** 1930-yillardagi fan va texnika sohasi olimlari, iqtisodchi va tarixchilaridan B.G.Andreyev, B.Blinkov, B.N.Menshutkin, A.M.Katz va ikkinchi jahon urushidan keyingi kimyogarlar M.A.Miniovich, A.E.Arbusov, C.B.Kaftanov va boshqalarning ilmiy nashrlarida sanoat, alohida sanoat tarmoqlarini rivojlantirish kimyo sanoati, kimyo zavodlari va sanoat tarmoqlarini qurish kimyoviy moddalarning shakllanish tarixi bilan bog‘liq masalalar yoritilgan<sup>2</sup>.

Kimyo sanoatining rivojlanish tarixiga bag‘ishlangan 1950-yillardagi ilmiy tadqiqotlar orasida P.M.Lukyanovning “Kimyo sanoatining qisqacha tarixi” monografiyasi alohida ajralib, unda kimyo sanoatining shakllanishi va rivojlanishining barcha asosiy bosqichlari ko‘rsatilgan va uni sanoatning yetakchi

---

<sup>2</sup>Андреев Б.Г. Основная химическая промышленность. М.-Л.: Госхимтехиздат, 1931; Блинков Б.Г. Химическая промышленность Средней Азии. Экономический очерк. М.-Л.: Госхимтехиздат, 1932; Меншуткин Б.Н. Важнейшие этапы в развитии химии за последние полтора столетия. М.: Изд. АН, 1934; Кас А.М. Вопросы экономики основной химической промышленности: исторический очерк развития сернокислотного производства. М.- Л.: Госхимиздат, 1939; Миниович М.А. История возникновения в России первого завода контактной азотной кислоты. М.: ОНТИ ГИАП, 1945; Арбузов А.Е. Краткий очерк развития органической химии в России. М.: Изд. АН, 1948; Кафтанов С.В. Тридцат лет высшей химической школы. М.: Изд. АН, 1947.

tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatdagi og‘ir sanoatning holati batafsil o‘rganilgan<sup>3</sup>.

O‘zbekiston olimlari tomonidan kimyo sanoatini rivojlantirishga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar amalga oshirilgan. A.D.Dulman, I.Iskanderov kabi olimlarning asarlari kimyo sanoati yaratilgan paytdan boshlab o‘tgan asrning 80-yillargacha bo‘lgan davrdagi rivojlanish yo‘llari va turli jihatlarini namoyon etadi<sup>4</sup>. O‘zbekistonda kimyo sanoatining shakllanishi tarixshunosligiga A.D.Dulmanning kimyo sanoati rivojlanishining turli jihatlarini, sanoatga oid muammolar va ularni hal qilish yo‘llarini ochib bergan asarlari katta hissa qo‘shmoqda<sup>5</sup>.

Kimyo sanoatining atrof-muhitga ta‘siriga bag‘ishlangan adabiyotlar soni tobora ko‘payib bormoqda. Ularda O‘zbekistondagi atrof-muhitning halokatli holatidan chuqur tashvish va tashvish bildirilib, tabiatni, dastavval, insonlarni muhofaza qilish bo‘yicha aniq takliflar kiritiladi. O‘zbekiston tarixining turli bosqichlarida kimyo sanoatining tarixiy tajribasi va rivojlanish muammolari SH.N.Oxunova, I.B.Mamadjanov, T.Yeshchanov, D.D.Muxammedov, M.R.Sharifxodjayeva, H.Sahobutdinova, M.Urinboyev, S.Badridinov, SH.Asqarov kabi olimlarning dissertatsiya tadqiqotlarida o‘rganilgan<sup>6</sup>.

Shu bilan birga, ushbu mualliflarning tadqiqotlarida, qoida tariqasida, boshqaruvning turli darajalarida kimyo sanoatining ishlashi va rivojlanishining individual muammolari boshqa sohalar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilgan. Ushbu muammoni o‘rganish hozirda eksportni ko‘paytirish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega kimyoviy polimerlar va yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash va ishlab chiqarishni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlarni bog‘lash dolzarb bo‘lib, tobora ko‘proq qiziqish uyg‘otmoqda.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F1-022-raqamli “Barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash uchun ichki imkoniyatlarni aniqlash va resurslarni safarbar etishning ilmiy-uslubiy asoslari” fundamental loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kimyo sanoati yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

<sup>3</sup> Лукьянов Г.М. Краткая история химической промышленности. М., 1959.

<sup>4</sup> Искандеров П. Экономика химической промышленности Узбекистана.-Ташкент,1978.

<sup>5</sup> Дульман А.Д. Химическая промышленность в Узбекистане.-Ташкент, 1959; Его неэкономическая эффективность развития и размещения химической промышленности в Бухара-Навайском промышленном районе.-Ташкент,1971. Его: Основные направления развития химической промышленности Узбекистана.-Ташкент,1957.

<sup>6</sup> Ахунова Ш.Н., Мамаджонов И.Б., Урозова Д.Д., Химическая промышленность Узбекистана: проблемы развития и пути их преодоления, DOI: 10.24411/2411-0450-2019-10814, 2019; Мухаммедов Д.Д., О.Т.Шипкова, Химическая промышленность Республики Узбекистан: основные препятствия на пути развития отрасли, Экономика и бизнес, 2017, №14; Сахабутдинова Х. Развитие химической промышленности Узбекистана:Дисс. канд.ист.наук.-Фергана,1971; Уринбаев «Деятельность Компартии Узбекистана по развитию химической промышленности республики (1959-1965):Дисс.канд.эк.наук.-Ташкент, 1965; Бадридинов С. Вклад трудящихся в развитие химической промышленности Узбекистана (1971-1980);:Дисс.канд.ист.наук.-Ташкент,1968; Аскараров Ш.М. Из опыта социально-экономических проблем на предприятиях химической промышленности в 80-е годы. Историко-партийный аспект проблемы (на материалах республик Средней Азии): Дисс. канд.эк. наук.-М.,1991.; Шарифходжаева М.Р. Развитие химической отрасли и химической промышленности в Узбекистане (1917-1945).-Ташкент,1981.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

kimyo sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini ochib berish;  
kimyo sanoatining eksport salohiyatiga ta’sir etuvchi omillarni o‘rganish;  
yuqori qo‘shimcha qiymatga ega kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishning rivojlanish darajasini aniqlash;

kimyo sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish;

kimyoviy eksportning o‘rni sur‘atlarini tahlil qilish;

investitsiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini, innovatsiyalarni va O‘zbekistonda kimyo sanoatini rivojlantirish istiqbollarini asoslash;

kimyoviy mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish bo‘yicha prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** bo‘lib O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati korxonalarining eksport salohiyati hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** kimyo sanoati yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy va iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot davomida ilmiy abstraksiya, sabab-oqibat munosabatlari, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish, korrelyatsion va regression tahlil, prognozlash usullari va ARIMA usulidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

xalqaro standartlarga muvofiq holda yaratilgan polipropilen va polietilen asosidagi yangi brendlarni joriy etish orqali kimyo sanoati korxonalarining plastmassa ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan eksport hajmini 10 foizga oshirish asoslangan;

O‘zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda mahsulotlar eksport jarayonlari zanjiridagi yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish salohiyatiga ustunlik berishga ko‘ra ishlab chiqarish tarkibida fosforli o‘g‘itlar salmog‘ini oshirish taklifi asoslangan;

bozor konyunkturasi o‘zgarishiga ko‘ra kimyo sanoati mahsulotlarining tarkibiy tuzilmasini muvofiqlashtirish asosida yangi brendni yaratish orqali tashqi bozordagi sifat va raqobatbardoshlikni oshirish yondashuvi ishlab chiqilib, uning asosida kaliyli o‘g‘itning ichki tarkibiga gumus kislotasini qo‘shish orqali yangi “Activ-humic” brendi joriy etilgan;

O‘zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligiga ta’sir etuvchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida tarmoq ishlab chiqarish hajmi, mahalliyashtirish va qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar eksportidagi o‘zgarishlarning 2030 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

jahon kimyo sanoatida ishlab chiqarishning mintaqaviy tuzilishini tahlil qilish asosida rivojlangan mamlakatlar (birinchi navbatda AQSH va G‘arbiy Yevropa mamlakatlari) sanoatda yetakchi o‘rinlarni egallaganiga qaramay, ularning ulushi pasayishda davom etayotganligi va endilikda rivojlanayotgan mamlakatlar, asosan Xitoy yetakchi o‘ringa ega bo‘layotganligi aniqlangan;



O'zbekistonda so'nggi yillarda yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilishi natijasida yangi qurilgan va foydalanishga topshirilgan ishlab chiqarish quvvatlarining iqtisodiy salohiyati baholangan;

kimyo sanoatining rivojlanishini cheklovchi asosiy omillarning tarkibiy qismlari aniqlangan;

kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi va energetika sektori o'rtasidagi o'zaro qarzar zanjiri muammosini hal qilish uchun qarzar zanjiri asosiga murojaat qilish va qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishdan boshlash kerakligi taklif etilgan;

mineral o'g'itlarni samarali ishlab chiqarishni tashkil etish maqsadida korxonalarini modernizatsiya qilish uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi aniqlanib, ulardan samarali foydalanish yo'llari ochib berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** o'rganish doirasida qo'llaniladigan yondashuv va usullarning rasmiy manbalardan, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligidan olinganligi, tahliliy ma'lumotlarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalarning kimyo sanoatining eksport salohiyatini oshirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-nazariy asoslarini kengaytirish va tadqiqot uslubini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan kimyo sanoatining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni, eksportni rivojlantirish dasturlari, strategiyalari va konsepsiyalarini ishlab chiqishda, shuningdek, yuqori qo'shimcha qiymatli tovarlarning jahon bozorini qamrab olishni kengaytirish uchun sanoat salohiyatini baholashda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan kimyo sanoati mahsulotlarining eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

xalqaro standartlarga muvofiq holda yaratilgan polipropilen va polietilen asosidagi yangi brendlarni joriy etish orqali kimyo sanoati korxonalarining plastmassa ishlab chiqarishga yo'naltirilgan eksport hajmini 10 foizga oshirish taklifi "O'z kimyosanoat" AJning faoliyatiga joriy etilgan ("O'z kimyosanoat" AJning 2024 yil 26 apreldagi 1358-08-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida plastik kompaniyalarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, tayyor mahsulot sifatini yaxshilash imkoni yaratilib, bu kimyo sanoati kompaniyasi salohiyatining iqtisodiy o'sishiga olib kelgan;

O'zbekistonda kimyo sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini baholashda mahsulotlar eksport jarayonlari zanjiridagi yuqori qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatiga ustunlik berishga ko'ra ishlab chiqarish tarkibida fosforli o'g'itlar salmog'ini oshirish taklifi "O'z kimyosanoat" AJning faoliyatiga joriy etilgan ("O'z kimyosanoat" AJning 2024 yil 26 apreldagi 1358-08-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida kompaniyaning mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini sanoatning iqtisodiy o'sishi va eksport salohiyatiga

erishish yo‘nalishida ko‘paytirish imkoni yaratilgan;

bozor konyunkturasi o‘zgarishiga ko‘ra kimyo sanoati mahsulotlarining tarkibiy tuzilmasini muvofiqlashtirish asosida yangi brendni yaratish orqali tashqi bozordagi sifat va raqobatbardoshlikni oshirish yondashuvi ishlab chiqilib, uning asosida kaliyli o‘g‘itning ichki tarkibiga gumus kislotasini qo‘shish orqali yangi “Activ-humic” brendini joriy etish taklifi “O‘z kimyosanoat” AJning faoliyatiga joriy etilgan (“O‘z kimyosanoat” AJning 2024 yil 26 apreldagi 1358-08-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O‘zbekiston uchun xalqaro yo‘laklarni kengaytirish, yangi kaliy xlorid brendi orqali dunyoning eng yaxshi kompaniyalari bilan raqobatlashish, o‘z navbatida mamlakat kimyo sanoati eksportini kengaytirish imkonini yaratgan;

O‘zbekistonda kimyo sanoatining rivojlanishi va iqtisodiy xavfsizligiga ta‘sir etuvchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida tarmoq ishlab chiqarish hajmi, mahalliy lashtirish va qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar eksportidagi o‘zgarishlarning 2030 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan foydalanish taklifi “O‘z kimyosanoat” AJning faoliyatiga joriy etilgan (“O‘z kimyosanoat” AJning 2024 yil 26 apreldagi 1358-08-sonli ma‘lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida 2030 yilgacha O‘zbekistonda kimyo sanoati mahsulotlarining eksportini ularning o‘sishi va kimyo sanoatining raqobatbardoshligini oshirish yo‘nalishi va o‘z navbatida aholining turmush darajasini, sanoatning holatini prognoz qilish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarini aprobatsiya qilish.** Ushbu tadqiqot natijalari 11 ta konferensiyada, shu jumladan 7 ta xalqaro va 4 ta respublika konferensiyalarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarini nashr etish.** Dissertatsiyaning asosiy qoidalari 19 ta ilmiy nashrda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 11 ta xalqaro va 8 ta respublika ilmiy nashrlarida e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tuzilishi kirish qismi, 3 bob, xulosa, havolalar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 151 bet.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, maqsadi va asosiy vazifalari, o‘rganish obyekti va predmeti asoslanib, uning kimyo sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga muvofiqligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rib chiqilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, ularni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishini qamrab olingan.

**“Yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan kimyo sanoati eksportini rivojlantirishning nazariy va uslubiy jihatlari”** dissertatsiyasining birinchi bobida kimyo sanoatining iqtisodiyotdagi o‘rni, kimyo sanoatining rivojlanishi va eksportning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalar, eksportni baholashda jahon tajribasi, kimyo sanoatining salohiyati ko‘rib chiqilgan.

Kimyoviy moddalar neftni qayta ishlash, tog‘-kon va metallurgiya, kimyo,

qurilish va farmatsevtika sanoatida qo'llaniladi va ishlab chiqariladi. Ularni ishlab chiqarish manbai bo'lib asosan mineral xom-ashyo hisoblanadi.

2022 yilda kimyoviy mahsulotlarning global savdosi hajmi 3,88 trln. dollarni tashkil etdi. Kimyo sanoatining o'ziga xos xususiyati talab ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning ko'pligi va mahsulotlarning keng assortimentidir. Asosiy iste'molchilar plastmassa va sintetik kauchuk mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar bo'lib, ular kimyoviy mahsulotlarga global talabning 17,3 foizini tashkil qiladi. Asosiy kimyoviy moddalar orasida etilen, propilen, metanol, benzol, paraksilen va xlor katta miqdordagi iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish uchun asos bo'lgan eng katta talabga ega.

## 1-jadval

### Dunyodagi eng yirik kimyo korxonalari<sup>7</sup>

Kompaniya, shtab-kvartira	Sotish hajmi, 2022, mlrd. doll.	O'rni
BASF AG, Lyudvigxafen, Germaniya	53,2	1
Dow Chemical, Midland, AQSH	46,3	2
Shell Chemicals, Niderlandi /Buyuk Britaniya	35,0	3
Bayer AG, Leverkuzen, Germaniya	34,1	4
INEOS, Lindxyorst, Buyuk Britaniya	33,0	5

Yevropa kimyo kompaniyalari (G'arbiy va Sharqiy Yevropa, MDH mamlakatlari) hozirda bozorning beshdan bir qismini egallab, mahalliy xom ashyo va boshqa sanoat tarmoqlari chiqindilari asosida klassik mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha o'z pozitsiyalarini egallab turibdi.


Hozirgi kunda soha korxonalarida jarayon davom etmoqda:  
 ishlab chiqarish sexlarini modernizasiya qilish;  
 qayta jihozlash va yangilash;  
 yuqori texnologiyalarga asoslangan uskunalalar.

Jahon miqyosida raqobatbardosh kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqaradigan zamonaviy korxonalarini yaratish va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiya qilish va rekonstruksiya qilish loyihalarini amalga oshirish, shu jumladan xorijiy va mahalliy investisiyalarni jalb qilish orqali fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishni kengaytirish yaqin kelajakda kimyo sanoatini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlari bo'lib qolmoqda.

Kimyoviy mahsulotlar xalqaro savdo qiymatining 13% va jismoniy hajmining taxminan 10% ni tashkil qiladi. 2022 yilda kimyoviy mahsulotlarning jahon bozori qiymat jihatidan taxminan 6,4 trln. Qiymati bo'yicha kimyoviy bozorning eng katta segmentlari plastmassalar (taxminan 25%), farmatsevtika mahsulotlari va organik birikmalar (har biri 20%). Tonnaj bo'yicha noorganik birikmalar (25%),

<sup>7</sup>Sayt ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan <https://globalcorporations.ru/top-10-krupnejshih-himicheskikh-kompanii-mira/>

plastmassalar, organik birikmalar (har biri 20%) va o'g'itlar (17%) eng yuqori ko'rsatkichga ega.



### 1-rasm. Jahon kimyoviy mahsulotlar bozorining tovar tarkibi<sup>8</sup>

Ishlab chiqarishning raqobatbardoshligi va kimyoviy mahsulotlar eksporti samaradorligi ko'plab omillar bilan belgilanadi va ularning roli alohida mahsulot guruhlari tomonidan katta farq qiladi. O'g'itlar va ko'plab noorganik birikmalar ishlab chiqarishda xom-ashyoning mavjudligi va arzonligi juda muhimdir. Plastmassa ishlab chiqarishning dastlabki mahsulotlari bo'lgan monomerlarni ishlab chiqarish nafaqat neft va gaz xom-ashyosi va energiyaning yuqori iste'moli, balki kapitalning sezilarli intensivligi bilan ham tavsiflanadi. Farmatsevtika sanoati va "nozik" kimyoning boshqa bir qator tarmoqlari juda yuqori bilim intensivligi bilan ajralib turadi. Garchi bu omil umuman sanoatda u qadar yuqori ahamiyatga ega bo'lmasa ham, plastmassa va kauchuk mahsulotlarining jahon tovar bozorlari mehnat xarajatlarida muhim o'rin tutadi. Ko'pgina kimyo sanoati uchun atrof-muhit omili atrof-muhit va inson salomatligiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatish imkoniyati tufayli katta ahamiyatga ega.

Dissertasiyaning ikkinchi bobini "Kimyo sanoatining eksport rivojlanishini iqtisodiy tahlil qilish va baholash" deb nomlangan. Unda O'zbekistonda kimyo sanoati va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarning ishlab chiqarish va eksport salohiyati tarkibiy tahlil qilinadi.

<sup>8</sup>Sayt ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan <https://uzkimyosanoat.uz/ru/documents/presidents/pp3983>

Kimyoviy materiallar eksporti ko'plab mahsulotlarni, shu jumladan sanoat kimyoviy moddalari, polimerlar, maxsus kimyoviy moddalar va farmasevtika tarkibiy qismlarini va boshqalarni qamrab oladi. Ushbu materiallar zamonaviy jamiyat faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, sog'liqni saqlash, infratuzilma, transport va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kabi muhim tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydi. Kimyoviy eksportning global taqsimlanishi xalqaro savdoning o'zaro bog'liqligini aks ettirib, turli mintaqalar kimyoviy moddalarning ayrim turlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va butun dunyo sanoatining yehtiyojlarini qondirish uchun savdo aloqalariga kirishadi. Eksport tarkibi, ta'minot zanjiri dinamikasini va ushbu sohadagi bozor tendensiyalarini anglab etish orqali jahon iqtisodiyoti va xalqaro savdoning harakatlantiruvchi kuchlarining o'zaro bog'liqligi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Polipropilen (PP) - monomerik propilendan olingan kuchli va qattiq, kristalli termoplastik polimer. Polipropilen plyonkalar (ayniqsa qadoqlash), sumkalar, konteynerlar, quvurlar, texnik jihozlarning qismlari, plastik stakanlar, uy-ro'zg'or buyumlari, to'quv bo'lmagan buyumlar, elektr izolyasiya materiallari ishlab chiqarish uchun, suzuvchi pol tizimlarida tebranish va shovqin izolatsiyasi uchun qurilishda ishlatiladi. K9928n markali polipropilen butunlay 100% qayta ishlanadi (qayta ishlash). Qayta ishlangan polipropilendan (B-PP) tayyorlangan mahsulot namunalari: avtomobil akkumulyatori korpusi, signal yoritgichi, batareya kabeli, supurgi, cho'tka, muz qirg'ich va boshqalar.

Ishlab chiqarish sanoati barqaror raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi eng muhim iqtisodiy faoliyat turlaridan biri sifatida o'rganilgani bois UNIDO tomonidan raqobatbardoshlik bo'yicha mamlakatlarning nisbiy o'rnini aniqlash jiddiy tadqiqotlarga molik masala sifatida e'tirof etilgan. Bu jarayonda CIP (Competitive Industrial Performance Index) indeksi, ya'ni Raqobatbardosh sanoat samaradorligi indeksini qo'llash orqali mamlakatlarning nisbiy holatini o'rganish va ma'lumotlarini tahlil qilish usullaridan foydalangan holda raqobatbardoshlik omillari o'rganiladi. UNIDO e'lon qilgan 2023-yilgi ma'lumotlar bo'yicha dunyodagi yetakchi 5 davlat qatoridan Germaniy, Xitoy, Irlandiya, Koreya Respublikasi va AQSH joy oldi. O'zbekiston 153 davlat orasida 87-o'rinni egalladi.

Bugungi kunga kelib, sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va bu orqali barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha xalqaro maydonda yuqori o'rinlarni egallagan xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish hamda ularning ayrim jihatlarini mamlakatimizga tatbiq etish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Germaniya jahondagi eng kuchli sanoat iqtisodiyotiga ega mamlakat hisoblanadi. Yetti milliondan ziyod xodimlar, ilmiy tadqiqot va ishlanmalar uchun umumiy xarajatlarning qariyb 60 foizi ajratilishi va yalpi qo'shilgan qiymatning taxminan 23 foizini tashkil etishi bilan sanoat korxonalari mamlakat gullab-yashnashiga munosib hissa qo'shmoqda. Germaniyada ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining aksariyati ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali va raqamlashtirilgan jarayonlardan foydalangan holda ishlab chiqariladi.

## 2-jadval

### Katta tonnali kimyoviy mahsulotlar eksport salohiyatini oshirishning asosiy omillari<sup>9</sup>

Eksport salohiyatini oshirish omillari	AQSH	Osiyo	Yevropa Ittifoqi	Yaqin Sharq	O'zbekiston	Eslatma
Xom-ashyo narxi						O'zbekistonda polipropilen narxi AQSH darajasida (ulara slanes gazi bor) va Yevropa va Osiyoga nisbatan pastroq
Sifatli logistika xizmati						Ular mamlakat ichida joylashgan bo'lib, bu yuqori transport xarajatlarini keltirib chiqaradi
Kam o'ziga xos kapital xarajatlar						O'zbekistonda qiyin iqlim sharoiti, qimmat logistika, uskunalar, qurilish tajribasini yo'qotish va qat'iy tartibga solish tufayli o'ziga xos kapital xarajatlar yuqori
Shkalaning ta'siri						O'zbekistonda jahon darajasidagi quvvatlar mavjud emas (1 million tonna etilendan), ular yaqin Sharq va Xitoyda faol ravishda qurilmoqda va joriy etilmoqda
Zamonaviy texnologiyalar						O'zbekistonda asosiy neft-kimyo obyektlari 1960-80-yillarda joriy etilgan bo'lib, bu eskirgan texnika va texnologiyalardan foydalanishga olib keladi

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston kimyo sanoati xom ashyo narxlari bo'yicha AQSH bilan raqobatlasha olib, bu muhim ko'rsatkich bo'yicha yaqin Sharq mamlakatlariga nisbatan ancha past. Logistika, aniq kapital xarajatlar, "miqyos effekti" va ayniqsa, texnologik rivojlanish jihatidan O'zbekiston asosiy raqobatchilardan pastroq ko'rsatkichga ega.

<sup>9</sup>Muallif tomonidan tuzilgan "Strategy Partners Group 2023g".

**3-jadval**


**Polimer mahsulotlari eksporti hajmi va yangi brendning ta'siri<sup>10</sup>**

<b>EKSPORT</b>						
<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>2019</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>yanvar- noyabr 2023</b>	<b>2023 (yangi marka bilan)</b>
	<b>ming.doll.</b>	<b>ming.doll.</b>	<b>ming.doll.</b>	<b>ming.doll.</b>	<b>ming.doll.</b>	<b>ming.doll.</b>
Birlamchi shakllarda etilen polimerlari	373 233,8	263 087,3	311 970,9	267 819,0	204 704,2	225 174,6
Birlamchi shakllarda propilen yoki boshqa olefinlarning polimerlari	4 649,4	14 122,3	13 703,7	12 414,9	7 085,5	7 794,1
Birlamchi shakllarda stiro polimerlari	-	7,8	379,4	669,7	942,2	1 036,4
Vinilxlorid yoki boshqa galogenlangan olefinlarning polimerlari, birlamchi shakllarda	736,7	13 272,1	18 363,9	11 549,9	4 293,4	4 722,7
Birlamchi shakllarda akril polimerlar	726,5	378,6	1 732,8	3 633,1	5 834,2	6 417,6
Amino-aldegid qatronlar, fenol-aldegid qatronlar va poliuretanlar birlamchi shakllarda	0,1	-	33,0	187,6	549,4	604,3
Birlamchi shakllarda silikonlar	-	0,1	16,0	307,6	430,5	473,6
Plastmassadan tayyorlangan chiqindilar, qoldiqlar	46,0	94,0	72,2	102,8	89,3	98,2
Plastmassadan tayyorlangan, quvurlar, shlanglar va ularning armaturalari (masalan, bo'g'in, tirsak, gardishlar)	3 010,0	3 982,0	4 732,6	4 464,0	2 926,1	3 218,7
Plastmassadan yasalgan plita, choyshab, plyonka va chiziqlar yoki lentalar, boshqalar	1 755,5	2 444,7	8 360,5	34 980,3	29 534,2	32 487,6

<sup>10</sup>Muallif tomonidan tuzilgan

Polipropilenni qayta ishlash jarayoni, odatda, materialdan aralashmalarni olib tashlash uchun plastik chiqindilarni 250 haroratda eritish bosqichini, vakuum sharoitida qolgan molekulalarni olib tashlashning keyingi bosqichini, shuningdek, taxminan 140 haroratda qotish bosqichini o'z ichiga oladi, birlamchi polipropilen bilan 50% gacha aralashtiriladi. Polipropilenni qayta ishlashning asosiy muammosi ushbu polimerni iste'mol qilishning katta hajmi bilan bog'liq. Misol uchun, hozirda ishlatilgan PP shishalarining atigi 1% qayta ishlanadi. Qiyoslash uchun, hozirda PET va HDPE (HDPE) dan tayyorlangan ishlatilgan shishalarning 98% qismi qayta ishlanadi. Polipropilen xavfsiz materialdir, chunki u inson salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi va unga kimyoviy va toksik ta'sir ko'rsatmaydi. Polipropilen K9928N: ishlash xususiyatlari: K9928n markali polipropilen yuqori mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan eng ko'p ishlatiladigan polimerlardan biridir.

Polipropilen ham yaxshi kimyoviy qarshilik va issiqlikka chidamlilik kabi xususiyatlariga ega. Ushbu xususiyatlarning ba'zilari polipropilenga poliyetilenni ba'zi ilovalardan siqib chiqarish imkonini berdi. Polipropilening barcha xususiyatlarini, xususan mexanik, elektr va kimyoviy xususiyatlarini o'rganib, ma'lum bir dastur uchun to'g'ri materialni tanlash mumkin. Qo'shma Shtatlardagi slanets gazining kattagina zaxiralari Shimoliy Amerikadagi kimyoviy mahsulotlar bozorining o'sishini rag'batlantiradi. 2030 yilga kelib slanets gaziga asoslangan kimyoviy moddalar eksporti 123 milliard dollarga yetishi prognoz qilinib, bu 2014 yildagi ko'rsatkichdan ikki baravar ko'p<sup>11</sup>.



**2-rasm. O'z kimyosanoat A Jning kimyo mahsulotlari turlari bo'yicha eksporti va prognozi<sup>12</sup>**


Shunday qilib, xorijiy kimyo sanoati bugungi kunda yuqori quvvatga ega yirik, yuqori texnologiyali korxonalaridan iborat. G'arb modeliga muvofiq rivojlanishning asosiy yo'nalishi ishlab chiqarishning integratsiyalanish va konsentrsiyalanish jarayoni bo'lib, bu ishlab chiqarish faoliyati samaradorligini va mahsulotlarning

<sup>11</sup>Sayt ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan <https://docplayer.net/19869340-Fueling-export-growth-u-s-net-export-trade-forecast-for-key-chemistries-to-2030.html>

<sup>12</sup>Sayt ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tuzilgan Uz-Kor Gaz Chemical. / [Elektronniy resurs]. - Rejim dostupa: URL: <http://www.uz-kor.com> (murojaat qilinish sanasi: 11.01.2024).



raqobatbardoshligini keskin oshirish imkonini beradi. Ushbu jarayonlar natijasida so‘nggi bir necha yil ichida kimyo va neft-kimyo mahsulotlarining jahon bozorida katta ulushga ega kompaniyalar soni 48 dan 14 gacha kamaydi. O‘zkimsanoat kimyo sanoatini rivojlantirish dasturlariga 12 million dollarlik 262,9 loyiha, shuningdek, 1,79 milliard dollarlik oltita loyiha kiritilgan. Dasturning umumiy qiymati 2,062 milliard dollarni tashkil etadi. Eksport uchun yangi turdagi mahsulotlar: kaliy nitrat, piroksilin, melanin, metil xlorid, kolloksilin, poliyetilen tereftalat, monoxloroasetik kislota, gidroksimetilsellyulozani aniqlash, polivinilasetat, monoyetilen glikol, poliakrilonitril, kaliy gidroksid hamda vinil atsetat ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yish mo‘ljallangan.



**3-rasm. O‘zbekistondan FOB narxida kimyo mahsulotlari eksporti, million AQSH dollarida<sup>13</sup>**

Ushbu raqam yillar davomida FOB eksport narxlarining o‘zgarishini aks ettiradi, bu bozor tendensiyalari va ushbu davrdagi eksport narxlariga ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy sharoitlarni ko‘rsatadi. U 2000 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan davrda FOB (bortda bepul) eksport narxleri to‘g‘risida ma’lumot beradi. FOB narxleri tovarlarning jo‘natish joyidagi narxini anglatadi va transport yoki sug‘urta kabi qo‘shimcha xarajatlarni o‘z ichiga olmaydi. 2000 yilda FOB eksport narxi 2815,6 yedi. Narxlar yillar davomida o‘zgarib turdi, ba’zi yillarda o‘shish va boshqalarda pasayish kuzatildi. Jadvaldagi eng yuqori FOB narxi 2022 yilda ko‘rsatilgan va 15 275,9 ga teng.

Jadvaldagi eng past FOB narxi 2002 yilda ko‘rsatilgan va 2513,5 ni tashkil qilgan. 2003 yildan 2008 yilgacha FOB narxi sezilarli darajada oshdi va 2007 yildan 2008 yilgacha kattagina o‘shish kuzatildi. 2008 yildan 2009 yilgacha dastlab narxlarning pasayishi, so‘ng 2011 yilgacha esa ularning barqaror o‘shishi kuzatildi. 2011 yildan 2015 yilgacha FOB shartlari bo‘yicha narxlar biroz pasaydi. 2015 yildan 2022 yilgacha bo‘lgan davrda narxlar umumiy o‘shish tendensiyasi bilan ba’zi tebranishlarni ko‘rsatmoqda.

<sup>13</sup>O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan tuzilgan

2022 yil yanvar–iyul oylarida mamlakatda 255,2 ming tonna azot va 118 ming tonna fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarildi. Shu bilan birga, fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish 4,6% ga oshdi, azotli o‘g‘itlar ishlab chiqarish esa, aksincha, 0,3% ga kamaydi.

#### 4-jadval


#### Mineral kimyoviy o‘g‘itlar ishlab chiqarish, ming tonna<sup>14</sup>

Ko‘rsatkichlar	Yanvar-iyun 2022 y	O‘shish, %	Yanvar-iyun 2023 y	O‘shish, %
Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi (trillion so‘m)	6,8	111,2	13,8	112,1
Mineral o‘g‘itlar (ming tonn)	720,7	107,1	1558,7	103,2
Azotli o‘g‘itlar (ming tonn)	555,3	108,7	1201,7	102,4
Fosforli o‘g‘itlar (ming tonn)	78,8	116,6	150	107,2
Kaliyli o‘g‘itlar (ming tonn)	86,6	91,6	207	104,8
Eksport xajmi (mln doll.)	218,3	237,5	425,1	111,3
Investisiya xajmi (mln doll.)	88,9	131,1	413	295,2
Yangi mahsulot xajmi (mlrd so‘m)	160,2	0	328	0

Birinchi yarim yillik yakunlariga ko‘ra, mahalliy fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchilari talabni 99,5% ga (bir yil oldin — deyarli 100%) ta’minladilar. Import 91,3 baravar oshdi, ammo bor-yo‘g‘i 502,2 tonnani tashkil yetdi. Ichki bozorda 99,8 ming tonna fosforli o‘g‘itlar sotildi – bu o‘tgan yilga nisbatan 5,2 foizga ko‘p. Vaziyat azotli o‘g‘itlar bilan farq qiladi: ishlab chiqaruvchilar talabni jami 46,3% (bir yil oldin - 47,4%). Import 3,1 foizga o‘sdi va 254 ming tonnani tashkil etib, import qilingan azotli o‘g‘itlarning ulushi 52,6% dan 53,7% gacha o‘sdi. Mamlakatdan 65,1 ming tonna azotli o‘g‘itlar eksport qilindi-bu o‘tgan yilga nisbatan darhol 21 foizga ko‘p; shu bilan birga, ichki bozorda sotish 1,8 foizga kamayib, 407,4 ming tonnani tashkil etdi.

O‘zbekistonda Markaziy Qizilqumlarning fosforitlari fosfor o‘z ichiga olgan o‘g‘itlar ishlab chiqarish uchun asosiy fosfat xom-ashyosi hisoblanadi. Markaziy Qizilqum mintaqasida donador fosforitlarning to‘rtta koni aniqlangan (Jeroy-Sirdarin, Jetimtau, Toshkent va Karakatinskiy). Fosfor va kaliy, azotdan farqli o‘laroq, tuproq tomonidan o‘rnatilishi mumkin, shuning uchun fosfor-kaliyli o‘g‘itlar har 2-3 yilda yoz oxirida yoki kuzda zaxiraga qo‘shilishi mumkin. Dunyoda aholining o‘sishi va yer maydonlarining qisqarishi mineral o‘g‘itlarga bo‘lgan talab oshishiga olib kelib, bu ushbu mahsulotlar narxi o‘shishining yetakchi omillaridan biridir.

<sup>14</sup>O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga asosan tuzilgan



**4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi kimyo sanoati eksportining tarkibi (mln. dollar)<sup>15</sup>**

Hozirgi kunda dunyodagi eng yirik mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchilari Jahon bozorining 25% dan ortig‘ini egallagan Xitoy, Hindiston (taxminan 13%), AQSH (taxminan 10%) va Rossiya (taxminan 8%). So‘nggi yillarda AQSHning global o‘g‘itlar bozoridagi ulushi asta-sekin kamayib bormoqda. Mineral o‘g‘itlarning jahon bozori azot, fosfor va kaliyli o‘g‘itlarning uchta asosiy segmentini o‘z ichiga oladi. Azotli o‘g‘itlarning ulushi jahon bozorining taxminan 59% ini, fosforli o‘g‘itlar – 24% va kaliyli o‘g‘itlar – 17% ini tashkil qiladi.

Bugungi kunda eksport tarkibida mineral o‘g‘itlar ustuvor o‘rin egallagan. Savdo sherigi mamlakatlarning o‘zgaruvchan talabini hisobga olgan holda, 2030 yilda eksportning 60% dan ortig‘i polimer mahsulotlariga to‘g‘ri kelishi kerak. Sanoat kooperasiyasini faol rag‘batlantirish uchun yuqori texnologiyali "ilg‘or" kimyoviy ishlab chiqarishga e‘tibor qaratish lozim: polimer seriyali, sintetik kauchuklar, dori-darmonlar. 2024 yilda respublika kimyo sanoati korxonalari 492,9 million dollar (104,2% o‘shish), shu jumladan 390,6 million dollar miqdorida mineral o‘g‘itlar eksport qilishni rejalashtirmoqda.

Qiymat jihatidan oltindan tashqari eksport ko‘lami 21,1 foizga o‘shib, 15,2 milliard dollarni tashkil etdi. Bunga asosan to‘qimachilik mahsulotlari savdosining 8,6% ga oshib, 3,18 milliard dollarga, sabzavot va mevalar - 1,15 milliard dollarga (+19,7%), gaz - 910,9 million dollarga (+25,4%), neft va neft mahsulotlari - 168,1 million dollarga (2,1 barobar) o‘shishi hisobiga erishildi: o‘g‘itlar - \$ 409,9 mln. (+18,3%), don - 357,7 mln. dollar (+19,7%) va boshqalar.

<sup>15</sup>Muallif tomonidan tuzilgan

**O‘zbekiston Respublikasida eksport va import qilinadigan kimyo mahsulotlarining tarkibi, 2023 yil (million AQSH dollari)<sup>16</sup>**

Yo‘nalishlar	Eksport (mln. AQSH dollari)	2022-yilga nisbatan %	Import (mln. AQSH dollari)	2022-yilga nisbatan %
